

LEV TOLSTOYNING "IQRORNOMA" ASARIDAGI DINIY E'TIQODLARNING TAHLILI

Nortojoyeva Uljamol Nortojoyevna

Jo'rayev Akrom

Termiz Davlat universiteti Filologiya o'zbek tili 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19480502>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Lev Tolstoyning "Iqornoma" asaridagi diniy e'tiqodlar haqida fikr yuritimiz va bu kitob orqali shoir bizga nimani tushuntirmoqchi ekanligi, shuningdek, bu kitobning hozirgi kundagi ahamiyati va biz bu kitob orqali nimalar olishimiz haqida keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Lev Tolstoyning "Iqornoma" asari, e'tiqod, din, imon, xudo, diniy e'tiqodlar, iqornoma, qayg'u, bilim, ziyoli, XIX asr, iqtiboslar, xristianlik dini, falsafiy qarashlar.

Lev Tolstoyning "Iqornoma" asari hasbi hol janrida yozilgan asarlaridan biridir. Bu asar jahon adabiyotida beqiyos o'rin tutgan va eng mashhur asarlaridan biri bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. "Iqornoma" haqiqatni qidirishning ishtiyoqli va ochiq-oydin xronikasi, buyuk diniy va'zlar kabi yozilgan, lekin mutassiblik tomonidan boshqara olinmagan ozod ruhlarning ochilgan qalb daftaridir. Tolstoyning "Iqornoma" asaridagi falsafiy yondashuvlar va diniy e'tiqodlar o'rtasidagi bog'liqlik uning dinlararo tinchlikka bolgan ishonchidan iboratdir. U barcha dinlarning asosiy maqsadi – insoniyatni yaxshilash, dunyoni to'g'ri axloq bilan boshqarish ekanligini ta'kidlaydi. Islomning ahloqiy hayotgan bo'lgan urg'usi va xristianlikning insoniylikga bolgan e'tibori Tolstoyning falsafiy qarashlari bilan uyg'unlashadi.¹ Asarda keltirilgan iqtiboslar Ko'p donolikda buyuk qayg'u bor; kim bilimni ko'paytirsa, qayg'uni ko'paytiradi; Biz fan deb ataydigan narsa hayotni emas, balki bizni hayot haqidagi tushunchamiz fan sifatida nimani tan olish kerakligini aniqlaydi; Sizning hayotingiz o'limning ko'z o'ngida sodir bo'ladi; Olov olovni o'chirmagani kabi, yovuzlik bilan yovuzlikni yo'qotib bo'lmaydi; Xudoni qidirib yashang, shunda Xudosiz hayot bo'lmaydi. "Iqornoma" – buyuk rus dahosini tushunish uchun eng asosiy kitob, chunki u butun ichki tanglik inqirozini va uning butun hayotini belgilagan shaxsiy va ma'naviy izlanishlarni aks ettiradi. Barcha qarama-qarshiliklarni, afsuslarni, aqliy mehnatni, qidiruv va topilmalarni ochib beradi. Buyuk adib Lev Tolstoy o'zining "Iqornoma" asarida inson umrining mazmuni haqida bosh qotirar ekan, uning hayotida e'tiqodning, dinning o'rni va roli haqidagi teran mushohadalarni o'rta tashlaydi, ulkan daholarni qiynagan ma'naviy muammolarga javob izlaydi.

Biz bu asarda XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya kabi mamlakatda yashagan o'z davrining dahosi va ziyolisining hayot yo'lini va kechinmalarini ochiq tan olishida qatnashishimiz mumkin. Garchi bugungi kunda Tolstoyning ilk asarlaridagi ba'zi baholashlar va fikrlash jarayonlari so'nggi asarlarining mavzulari kabi bizni hayratda qoldirishda davom etmasa-da, "Iqornoma" noyob xazinalardan biri bo'lib, unda muallif o'z ko'z yoshlari va aqliy tarangliklarini bizga ko'rsatish uchun aqlini va yuragini katta qilib ochib beradi.² Odanning hayotiga qarab, uning ishlariga qarab, uning Xudoga ishonish-ishonmasligini bilib bo'lmaydi.

¹ Lev Tolstoyning Iqornoma asaridagi axloqiy izlanishlar va diniy e'tiqodlar tahlili. To'xtamamatova Xurshidabonu

² Nurbek Alimov "Jahon adabiyotining eng buyuk asarlari"

Avvallari shunaqa edi, hozir ham shunday. Mabodo bordi-yu, pravoslav dinidagi odam bilan uni inkor etuvchi kishi o'rtasida biron-bir tafovut bo'lsa, bu dindor odamning foydasiga bo'lmaydi. Avvallari bo'lgani kabi hozirgi paytda ham pravoslav mazhabini tan oluvchilar va uni o'zlarining imoni deb bilganlarning ko'pchiligi aqli noqis, bag'ritosh va vijdonsiz odamlardir.

Ular haddan ziyod o'zlariga bino qo'yishgan. Donolik, to'g'rilik, nomus, ochiqko'ngillilik va diyonat esa ko'pincha o'zlarini dinga ishonmaydi deb tan oluvchilar o'rtasida uchraydi. Lev Tolstoy bu asar orqali ijtimoiy tizimning nohaqligini va adolatsizligini tanqid qilib ochib beradi. Bunga ko'ra, odamlarning gunohlarini anglash va ularni tuzatishga harakat qilishdan ko'ra, sud tizimi va jazolar ko'proq ijtimoiy sinflar o'rtasida bo'linishi kuchaytiradi. Bu asarda shu mavzu chuqur muhokama qilinib tahlil qilinadi.

Tolstoyning "Iqornoma" asarida shunday aytilib o'tilgan: "Mening dindan qaytishim bizga o'xshagan o'qimishli odamlar o'rtasida qanday sodir bo'lgan va bo'layotgan bo'lsa, xuddi shunday ro'y berdi. Mening nazarimda, ko'p hollarda bu quyidagicha sodir bo'ladi shekilli: hamma qanday yashasa, ayrim-ayrim odamlar ham shunday yashaydi.

Hamma esa shunday ibtidolar asosida hayot kechiradiki, bu ibtidolarning diniy e'tiqodlarga aloqasi yo'qqina emas, balki ko'p hollarda ularga butkul zid hamdir, diniy e'tiqodlar tirikchilikda ishtirok etmaydi, boshqa odamlar bilan muloqotda bo'lganingizda hech qachon diniy e'tiqodlarga ro'para kelmaysiz va o'z hayotingizda ham hech qachon undan bahramand bo'lishingizga to'g'ri kelmaydi; diniy e'tiqodlarga kundalik hayotdan olisda va unga bog'liq bo'lmagan holda sig'inasiz. Agar unga to'qnash kelib qolsangiz, faqat hayot bilan bog'liq bo'lmagan tashqi hodisadek muomalada bo'lasiz".³ Bu orqali yozuvchi insonning dinidan uzoqlashishi ko'pincha jamiyat muhiti va kundalik hayotda diniy qadriyatlarning amalda qo'llanilmasligi natijasida yuz beradi. Din inson hayotida faol rol o'ynamasa, u asta-sekin hayotdan chetga chiqib qoladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, "Iqornoma" asari — bu davr insonlarning diniy e'tiqodlari va ichki kechinmalarini ochiq tan olib, ularni yozma ravishda bayon etish kuchaygan davrni anglatadi. Bu asrda odamlar o'z hayoti, e'tiqodi, shubhalari va ruhiy holatini tahlil qilib, uni iqornoma shaklida ifodalaganlar. Natijada insonning ichki dunyosini o'rganish, ma'naviy izlanish va shaxsiy tajribani ochiq bayon qilish muhim ahamiyat kasb etgan.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Lev Tolstoyning Iqornoma asaridagi axloqiy izlanishlar va diniy e'tiqodlar tahlili. To'xtamamatova Xurshidabonu
2. Nurbek Alimov "Jahon adabiyotining eng buyuk asarlari"
3. Lev Tolstoy "Iqornoma" asari 4-bet
4. Din falsafasi va diniy tafakkurga oid ilmiy adabiyotlar

³ Lev Tolstoy "Iqornoma" asari 4-bet